

AXBOROT ASRIDA ZAMONAVIY KUTUBXONACHILARNING O'RNINI VA ULARNING KASBIY MAHORATI

Jabborova Dilnoza Qayumovna
Qarshi davlat universiteti kutubxonachisi
O'zbekiston, Qarshi

Annotatsiya: Maqolada kitob, kutubxona va kutubxonachining vazifasi va Qarshi davlat universiteti kutubxonasi haqida fikrlar bayon etilgan. Ya'ni kutubxona – qadimiy qo'lyozmalar, badiiy, ilmiy kitoblar saqlanadigan va kishilik jamiyati tarixini avlodlardan – avlodlarga yetkazadigan muassasa ekanligi to'g'risida hamda bu maskanda insoniyat erishgan barcha ilmlar, turli fan sohalari bo'yicha shaklidan, xilidan, turidan, tilidan qat'i nazar, adabiyotlar to'planganligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *kitob, qo'lyozma, kutubxona, katalog, elektron resurs, zamonaviy texnologiyalar, havo elementlari, onlayn resurslar.*

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ БИБЛИОТЕКАРОВ В ИНФОРМАЦИОННЫЙ ВЕК И ИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ МАСТЕРСТВО

Джаббаровой Дилноза Каюмовной
библиотекарю Каршинского государственного университета
Узбекистан, Карши

Аннотация: В статье изложены мысли о книге, библиотеке и обязанностях библиотекаря, а также о библиотеке Каршинского государственного университета. То есть, библиотека - это учреждение, которое хранит древние рукописи, художественные и научные книги и передает историю человеческого общества из поколения в поколение, и в этом месте собрана литература по всем наукам, достигнутым человечеством, в различных областях науки, независимо от их формы, вида, типа и языка.

Ключевые слова: книга, рукопись, библиотека, каталог, электронный ресурс, современные технологии, воздушные элементы, онлайн-ресурсы.

THE ROLE OF MODERN LIBRARIANS IN THE INFORMATION AGE AND THEIR PROFESSIONAL SKILLS.

Jabbarova Dilnoza Kayumovna
librarian of Karshi State University
Uzbekistan, Karshi

Abstract: The article presents thoughts on the book, library, and librarian responsibilities, as well as the library of Qarshi State University. That is, a library is an institution that stores ancient manuscripts, artistic and scientific books, and passes down the history of human society from generation to generation, and in this place, literature is collected on all sciences that humanity has achieved, in various fields of science, regardless of their form, type, type, and language.

Keywords: book, manuscript, library, catalog, electronic resource, modern technologies, air elements, online resources

Kirish. Insoniyat tomonidan yaratilgan yozuvdan keyingi ikkinchi kashfiyot sifatida – kitob yuzaga keldi. Kitob insoniyat tarixiy taraqqiyotining bilim va ilm

mezoni sifatida baholanadi. Kitob — insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblagan. Kishilik jamiyatining madaniyati uning kitobida aks etadi. Inson o'zining fikrlash qobiliyati, ma'naviyat dunyosi bilan tirik.

Davrlar davomida kitobning shakl-shamoyili, sifati, bezatilishi, tashqi ko'rinishi, ishlab chiqarilishi takomillashib bordi. Antik davrda o'rama kitoblar shakllangan bo'lsa, keyinchalik eramizning IV asriga kelib, muqovaga ega qo'lyozma kitoblar paydo bo'ldi. XV asrga kelib esa qo'lyozmalarni qo'lda ko'chirib yozishdan kitob chop etishga o'tildi. XX asr oxiriga kelib esa ilg'or mamlakatlarda elektron shakldagi kitoblar yuzaga keldi. Ammo har qanday shaklda bo'lmasin, kitobning mohiyati o'zgarmaydi. Qo'lyozma holida ham, matbaa holida va elektron shaklda ham kitob o'zining tub mohiyatini, ahamiyatini yo'qotmaydi, uning o'rnini boshqa narsa egallay olmaydi.

Yurtboshimizni kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilayotgan alohida e'tibori tufayli barcha ta'lim maskanlaridagi o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon", "Kirobxonlar bayrami", ko'rik tanlovlari, jumladan Qarshi davlat universitetida ishlayotgan zamonaviy kutubxona va kitob do'konlari "Mahalla yoshlari bilan ishlash xonasi" yosh avlodni ma'naviy va intellektual ehtiyojini qondirishda, kitobga oshno bo'lishida muhim o'rin tutmoqda. Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, "Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir".

Asosiy qism: Insoniyatning eng ilg'or qismi bo'lgan ilm ahli tomonidan yaratilgan qo'lyozmalar va kitoblar qanday holatda va qayerda saqlanishi lozim. Albatta kitoblar maxsus havo elementlari ya'ni harorat, namlik, shamolatilish va boshqa texnik imkoniyatlar mavjud joylarda – kutubxonalarda maxsus malakali mutaxassislar (kutubxonachi) tomonidan saqlanishi maqsadga muvofiq. Shu o'rinda kutubxonachi va uning vazifalariga e'tiborni qaratish o'rinlidir. Dastlab, kutubxonachilarning vazifasi faqat kerakli kitobni tezda topish edi. Ammo

kutubxonada kitob zaxiralarining ko'payishi bilan kutubxonachilar faoliyati ko'lami ham kengayib bordi. Zamonaviy kutubxonachi - bu nafaqat kitobxonga kerak bo'lgan kitobni tezda topibgina qolmay, balki bosma nashrlarni saqlashning barcha xususiyatlarini (shu jumladan qadimiy nusxalarini) biladigan, fondni tashkil qiladigan va kutubxonachi - bu nafaqat kitoblarni tartibga soluvchi inson, balki bilim tarqatuvchi, kitobxonlarga yo'l ko'rsatuvchi va ilm-ma'rifat rivojiga hissa qo'shuvchi mutaxassisdir. Uning vazifalari turli yo'nalishlarni o'z ichiga oladi va doimo o'zgarib borayotgan axborot jamiyatida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kutubxonachining asosiy vazifalari nafaqat yangi kitoblarni ro'yxatga olish, ularni kataloglashtirish va foydalanuvchilarga qulay tartibda taqdim etish, kutubxonada mavjud adabiyotlarni nazorat qilish, ularni saqlash va yangilash hisoblanadi. Har bir kitobxon tashrifchisi o'ziga kerak kitob yoki ma'lumotni topishi uchun kutubxonachi tomonidan yo'nalish va maslahat oladi. Ayniqsa ilmiy - tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan talabalar, magistrlar, doktorantlar va olimlar uchun to'g'ri adabiyot tanlashda kutubxonachining o'rni beqiyosdir.

Zamonaviy kutubxonachilar nafaqat bosma kitoblar bilan, balki elektron resurslar, onlayn ma'lumotlar bazalari va raqamli kutubxona tizimlari bilan ham ishlashlari kerak. Bugungi kunda ko'plab kutubxonalar elektron kataloglar va internet bazalaridan foydalanishni joriy etmoqda. Jumladan Qarshi davlat universiteti kutubxona fondida 600 mingga yaqin kitob fondi bo'lib, shulardan 70 foizga yaqini elektron kataloglashtirilgan kitoblar mavjud bo'lib, yiliga 10 mingdan ortiq kitobxonlar bizga murojaat qiladi.

Kutubxonachi nafaqat kitoblarni saqlaydi, balki madaniy - ma'rifiy tadbirlarni o'tkazib, keng omma o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qila oladigan mutaxassis ham bo'lishi talab etiladi. Kitobxonlik haftalari, adabiy uchrashuvlar, yozuvchi va shoirlar bilan suhbatlar-bularning barchasi kutubxonachining faol ishtirokida amalga oshiriladi.

Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan kutubxonachilik kasbi ham rivojlanmoqda. Elektron kitoblar, audio, video materiallar, virtual kutubxonalar-bularning barchasi kutubxona xizmatlarining bir qismiga aylanib bormoqda.

Kutubxonachi - bu bilim targ'ibotchisi, kitob va axborot vositasida jamiyatga xizmat qiluvchi fidoiy inson hisoblanadi. Uning faoliyati natijasida odamlarning ilm-ma'rifatga yaqinlashishi, kitob mutaolasining rivojlanishi va madaniy saviyasining oshishi kuzatiladi. Shunday ekan, kutubxonachilik kasbi bugungi kunda ham dolzarb va muhim soha hisoblanadi.

Xulosa. Har bir kutubxonaning o'z tarjimai holi, o'z tarixi, o'z vazifasi bor. Qarshi davlat universiteti kutubxonasi ham 2025 yilda 80 yillik yubeleyini nishonlash arafasida, 1945-yil 1-sentyabrda Buxoro birlashgan pedagogika va o'qituvchilar institutining Qarshi filiali sifatida faoliyat boshlagan davrdan tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda u nafaqat Qashqadaryo viloyatining balki Respublikamiz janubiy mintaqasi eng yirik oliygohining yagona madaniyat markazidir. Bu yerda barcha yoshdagi kitobxonlar uchun dam olish va foydali vaqt o'tkazish uchun sharoitlar yaratilgan: talabalar uchun 4 ta kompyuter xonalari, 200 kitobxonga mo'ljallangan 2 ta kitob mutoalasi zali, QR kodli qurilma, 3D qurilmasi, skaner qurilmalari mavjudki barchasi kitobxonlarning vaqtlarini maroq bilan o'tkazishiga xizmat qilib kelmoqda.

Bugungi kunda Qarshi davlat universitetida 20 mingdan ziyod bakalavr hamda magistrlar tahsil olishmoqda va ularga mingga yaqin oqituvchi – professorlar ta'lim va tarbiya berishmoqda. Jumladan talabalarning ta'lim va tarbiya olishlarida kutubxona hamda kutubxona ishchi va xodimlarining ham o'rni beqiyosdir. Universitetimizning kutubxona xodimlari ishga yangi texnologiyalarni faol qo'llamoqdalar. Har yili 50 ga yaqin ko'ngilochar va ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi. Kutubxonaning universal fondi badiiy va ilmiy muxlislaridan tortib, viloyatimiz madaniyati ixlosmandlarigacha bo'lgan turli qiziqishlarga ega tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb qiladi

Kutubxonachi-faqatgina kitoblarni saqllovchi emas, balki jamiyatni ma'naviy boyituvchi, kitobxonlik madaniyatini shakllantiruvchi mutaxassisdir. Uning mehnati ilm-ma'rifatga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi va insonlarni kitob orqali yangi bilim va kashfiyotlarga yetaklaydi.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев С. И., Муртазаев Б. Ч., Назаров М. Г. The natural potehtial of the landscape //Life Sciences and Agriculture. – 2021. – №. 1. – С. 135-140.
2. Do'syorova K.N. Axborot – kutubxona faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari. Darslik. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2024.-224 b.
3. Qosimova O. O'zbekiston kutubxonachilik tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. 192 b.
4. Kormilisin A., Rasulov M., Davlatov S. Kutubxonachilik ishining nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2003.
5. Муртазаев Б. Ч. К вопросу изучения физико-географических процессов Юго-Западного Гиссарского хребта на примере Яккабогского лесничества //Экономика и социум. – 2022. – №. 11-2 (102). – С. 518-529.
6. Murtazayev B. Ch. "Qashqadaryo viloyati balandlik mintaqalarini tizimli yondoshuv asosida organish." *Экономика и социум* 5-2 (120) (2024): 465-476.

Axborot manbalari:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portal.
2. www.Lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumolari milliy bazasi.